


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**STYLE CHARACTERISTICS OF PHRASES IN "GULISTAN" BY SAADI SHIRAZI***Saida Ubaydullayevna Sultankhodjayeva**Senior lecturer**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Stylistics, component, form, evaluation, expressiveness, change, additional meaning.

Received: 15.05.24

Accepted: 17.05.24

Published: 19.05.24

Abstract: This article focuses on the stylistic features of the phrase used in "Guliston" by the famous Iranian writer and poet Saadi Shirazi. The article analyzes the semantics, structure and composition of the phrase. During the analysis of examples, their additional topics will be covered. Some phrases that have undergone changes are defined as phenomena of speech, some of which gradually move from a contextual phenomenon to a phenomenon of language. This shows that language, including literary language, is a process of phrase development.

SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARIDA FRAZEMALARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI*Saida Ubaydullayevna Sutlanxodjayeva**katta o'qituvch**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Uslub, komponent tarkibi, shakl, bo'yog'dorlik, tasirchanlik, o'zgarish, qo'shimcha mano.

Annotatsiya: Mazkur maqola Eronning mashhur adibi, shoiri Sadiy Sheroyinning "Guliston" asarida qo'llanilgan frazemalarning uslubiy xususiyatlariga bag'ishlanadi. Maqolada frazemalar semantikasi, strukturasi, komponent tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar tahlil etiladi. Misollarni tahlil qilish jarayonida ularning qo'shimcha manolari yoritiladi. Bazi o'zgarishga uchragan frazemalar nutq hodisasi, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan til hodisasiga o'tishi

belgilanadi. Bu esa tilning, jumladan adabiy til frazemalar sistemasining taraqqiyot jarayonini o'zida ifoda etishini ko'rsatadi.

СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИЕ СААДИ ШИРАЗИ

Саида Убайдуллаевна Султанходжаева

Старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: компонент, выразительность, дополнительное значение, форма,

Стилистика, оценка, изменение,

Аннотация: Данная статья посвящена стилистическим особенностям фразем, использованных в произведении «Гулистан» известного иранского писателя и поэта Саади Ширази. В статье анализируются изменения семантики, структуры и состава фразем. В процессе анализа примеров выделяются их дополнительные значения. Некоторые измененные фраземы являются речевым событием, некоторые из них постепенно переходят из контекстуального в языковое событие. Это показывает, что язык, в том числе литературный, выражает процесс развития системы идиом.

KIRISH

Frazemalar badiiy asarlarda qo'llanar ekan, ularning an'anaviy formasi, ya'ni tuzilishi turli xil o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Ayni hollarda frazemalar ham yozuvchining individual mahoratiga ko'ra, asarning qofiyasiga moslashtiriladi. Bu esa frazemaning shaklan va ba'zi hollarda mazmunan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Garchi individual ijodiy o'zgarishlariga uchragan frazemalar miqdor jihatdan ko'p bo'lmasa ham, ular maxsus o'rganishni taqozo etadi, chunki bunday o'zgarishlar frazemalarning uslubiy rolini oshiradi, frazemani nutqda qo'llash normalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. S.K. Kenesbaev ta'kidlaganidek, "frazemalarni uslubiy maqsadda qo'llashda tilning boshqa elementlari singari so'zlovchi (yozuvchi) -ning unga ob'ektiv munosabati, konkret situatsiya, kontekstual shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi".

Darhaqiqat, frazemalarning semantikasida, strukturasi, komponent tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar, ya'ni an'anaviy frazeologizm bilan o'zgarishga uchragan frazemalarni bir-biridan farqlash lozim, chunki an'anaviy frazema til hodisasi bo'lsa, o'zgarishga uchragan frazemalar nutq hodisasi, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan til hodisasi o'tishi mumkin. Bu esa tilning, jumladan adabiy til frazeologik sistemasining taraqqiyot jarayonini o'zida ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, til sistemasining o'zi kabi

uning frazeologiya sathi ham “tayyor mahsul” gina emas, balki “ijodiy faoliyat” uchun ham muhim manbadir.

Ta’kidlash joizki, frazemalardan uslubiy maqsadda foydalanish usullari olimlar tomonidan turlicha tasnif etiladi. Jumladan, I.Kuchkartaev Abdulla Qahhor tomonidan ijodiy individual qo‘llangan umumtil frazemalarini to‘rt tipga ajratadi:

- 1) ma’nosi o‘zgartirib qo‘llangan frazemalar;
- 2) yangi uslubga qo‘chirilgan frazemalar;
- 3) atalishi o‘zgartirib qo‘llangan frazemalar;
- 4) komponentlarining dastlabki ma’nolari tiklab qo‘llangan frazemalar.

X. Kaxxarova esa Abdulla Qodiriy asarlari frazeologiyasini o‘rganib, ishning ikkinchi bobini “Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan frazemalar” deb nomlagan. Bu ishda individual-avtor frazemalari quyidagicha ikki guruhga ajratib tadqiq qilingan:

- 1) umumtil frazemalari zaminida yaratilgan frazemalar;
- 2) yozuvchining o‘zi tomonidan yaratilgan frazemalar.

Bunday farqli ravishda, A.I. Molotkov frazema qo‘llashning individual-avtor usullarini ikkiga ajratadi:

1. Frazema semantikasida normadan chetga chiqish hollari (frazemaning o‘zgacha semantikada, ma’noda qo‘llanishi nazarda tutiladi);
2. Frazema formasida normadan chetga chiqish hollari.

A.I. Molotkovning bu tasnifi xususida B. Yo‘ldoshev o‘zining dissertasiyasida quyidagi fikrni bildiradi: “A.I. Molotkovning bu tasnifi frazemalardagi individual-avtor o‘zgarishlarining barchasini to‘la qamrab ololmaydi. Shu bilan bu tasnifda ikkinchi guruh (frazema formasida normadan chetga chiqish hollari) ba’zi o‘rinlarda birinchisi bilan mos keladi, chunki frazema formasidagi o‘zgarish o‘z navbatida frazema semantikasida ham muayyan o‘zgarishga, siljishga olib kelishi muqarrar. Frazemalarda yuz beradigan barcha individual-avtor o‘zgarishlarini quyidagicha ikkiga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir: a) frazemalarni ijodiy struktur-semantik o‘zgartirish usullari; b) frazemalarni ijodiy semantik o‘zgartirish usullari”.

Ko‘rinadiki, frazemalardan uslubiy maqsadda foydalanish usullari olimlar tomonidan turlicha tasnif etiladi. Shu tasniflar orasidan A.I. Molotkovning qarashlari ko‘proq asoslidir. Olim bevosita uslubiy maqsadda ijodiy ko‘llaniladigan frazemalarni ham semantik, ham shakl, ya’ni tuzilishi jihatdan o‘zgarishini aniq tasniflaydi. Biz ham maqolamizda shu tasnifga suyanamiz.

ASOSIY QISM

“Guliston” dagi frazemalarni stilistik qo‘llanish usuli jihatidan ikkiga ajratish mumkin:

1. Frazemalarni o'zgarishsiz shaklda qo'llash, ya'ni frazemaning komponent tarkibi, shakli, struktural qurilishi deformatsiyaga uchramaydi. Balki frazemalarning ichki tuzilishi uning turg'unligiga asoslanadi va o'zgarishsiz shaklda qo'llanilishini ta'minlaydi. Masalan:

(۱) آن کس که مرا بگشت، باز آمد پیش ما که دلش بسوخت بر گشته خویش

(« شرح گلستان », باب ۵, ص. ۵۰۹ .)

Ul kishi qaytib keldi meni o'ldirib,

O'zining rahmi keldi dilni kuydirib.

[deleš suxt] so'zma-so'z "dili kuydi", ya'ni "yuragi ezildi", "achindi" ma'nolarini bildirib, hozirda huddi shunday shaklda saqlangan, faqatgina zamonlari (hozirgi yoki o'tgan) va egalik qo'shimchalari moslashtiriladi.

(۲) ملک را رحمت در دل آمد و از سر خون او در گذشت.

(« شرح گلستان », باب ۱, ص. ۱۷۷ .)

Podshohning rahmi kelib, uning qonidan kechdi.

(۳) این بگفت و طایفه ای از نُدمای ملک با وی بشفاعت یار شدند تا ملک از سر خون او درگذشت و گفت: بخشیدم

اگرچه مصلحت ندیدم. (« شرح گلستان », باب ۱, ص. ۱۸۳ .)

Vazir bu baytni o'qigandan so'ng, podshoh a'yonlaridan bir nechalari uning iltimosini ma'qulladilar. Shunda podshoh:

-O'zim ma'qul ko'rmasam-da, sen uchun uning qonidan kechdim, -dedi.

[az sar-e xun-e kasi dar gozaštan] so'zma-so'z "kimdirning qonining boshidan kechmoq", ya'ni "rahm qilmoq", "kechirmoq", "kimdirning qoni savdosidan kechmoq", "kimdirning qonidan qechmoq", "qimdirning bir qoshiq qonidan qechmoq" ma'nolarini bildiradi va shu ko'rinishda ishlatilgan. Hozirda bu frazema kitobiy uslubga xosdir.

2. Frazemalarni xilma-xil o'zgarishlar bilan qo'llash. Bunday frazemalar uslubiy jihatdan deformatsiyaga uchragan bo'ladi va ko'proq fe'liy frazemalarda yuz beradi. Ya'ni frazemaning komponent tarkibi, shakli va struktural qurilishi o'zgargan holda qo'llaniladi. "Guliston" asarida uchragan quyidagi frazemalarni keltirish mumkin:

(۱) توقع به کرم و اخلاق خداوندی چنان است که به بخشیدن خون این جوان بر بنده منت نهد. (« شرح گلستان », باب

۱, ص. ۱۸۲ .)

"Ey podshohim, oqu qorani bilmagan, dunyodan bahramand bo'lmagan bu yigitning qonidan men uchun kechsangiz. Zero, yoshlarga rahm-shafqat qilish podshohlarga munosib fazilatdir".

[baxšidan-e xun-e kasi] so'zma-so'z "birovning qonini kechirmoq", ya'ni "qonidan kechmoq", "afv etmoq", "kechirmoq" ma'nolarini anglatib, « xun-e kasi baxšidan] uning struktural, ya'ni an'anaviy formasi hisoblanadi.

(۲) یکی از ملوک عرب رنجور بود در حالت پیری و امید از زندگانی قطع کرده...

(« شرح گلستان » ، باب ۱ ، ص. ۱۸۸ .)

Ajam podshohlaridan biri keksaygan chog'ida tobi qochib, hayotdan umidini uzib yotgan edi ...

« امید از زندگانی قطع کردن » [omid az zendegāni (zendegi) yat kardan] so'zma-so'z "umid hayotdan uzmoq", ya'ni "hayotdan umidni uzmoq" ma'nosini anglatib, « از زندگی امید قطع کردن » [az zendegi omid yat kardan] uning struktural-an'anaviy formasi hisoblanadi. "Guliston"da yozuvchi aynan « امید », ya'ni "umid" so'zini ta'kidlamochi bo'lib, asosiy urg'uni bergan va frazemaning konstruksiyasini o'zgartirgan. Shuningdek, hozirgi paytda « زندگانی » o'rniga « زندگی » so'zi qo'llaniladi.

O'z navbatida, frazemalarning struktur jihatidan o'zgarishga uchrashi va ularning semantik, ya'ni ma'no doirasi jihatidan kengayish yoki torayish hollari frazmadan uslubiy maqsadda foydalanish usullarida kuzatish mumkin. Bunday o'zgarishlar ko'proq avtor tomonidan frazemalarning ta'sirchanligini oshirishda yoki qofiyalarni keltirishda asarlarda ko'llaniladi.

Ko'pincha frazemalardan foydalanishda, yozuvchi frazema komponentidagi biror so'z, predlogni tashlab ketishi, qisqartirishi; so'z yoki so'z birikmalarini frazema tarkibiga qo'shib foydalanishi; frazemalarning obrazlilikini, uslubiy bo'yog'ini oshirish uchun komponent tarkibini o'zgartirishi, yoki almashtirishi; ijodiy maqsadda muallif tomonidan qo'llanilgan ko'chma ma'nodagi birikmalar frazemalarlar qatoriga kiritilishi hollari ham uchraydi. Shuningdek, frazema strukturasidagi, komponent tarkibidagi o'zgarish ma'lum darajada uning semantikasiga ham ta'sir ko'rsatadi: Frazemalar o'z ma'nosini o'zgartiradi yoki qo'shimcha ma'no ottenkalariga ega bo'ladi. Demak, frazemalarni xilma xil o'zgarishlar bilan qo'llashning individual-avtor usullarini ikki guruhga ajratiladi:

1. Frazema semantikasida normadan chetga chiqish hollari, ya'ni frazemaning o'zgacha semantikada, ma'noda qo'llanishi nazarda tutiladi;

2. Frazema formasida normadan chetga chiqish hollari, ya'ni frazema o'zgacha shaklda qo'llanilishi nazarda tutiladi.

"Guliston" da quyidagi misollar bundan dalolat beradi:

1. « سر کسی به سنگ کوبیدن » [sar-e kasi be sang kubidan] so'zma-so'z "birovning boshini toshga urmoq", ya'ni "o'ldirmoq" tushunchasini bildirib, frazemaning uslubiy ma'nosini kuchaytirish uchun obrazli ifodalangan. Ayni holda, bu frazema so'zlashuv nutqida ham qo'llanilib, "engib chiqmoq", "g'alaba qozonmoq", "qo'li baland kelmoq", "zafar qozonmoq" ma'nolarini anglatadi. She'riy parchada frazemaning qo'llanilishi va qofiyaga moslashtirilishi, uning struktur va uslub jihatdan o'zgarishiga sabab bo'lgan:

که ترسد سرش را بکوبد به سنگ

از آن مار بر پای راعی زند

(« شرح گلستان » ، باب ۱ ، ص. ۱۸۸ .)

Ilon qo‘rqib chaqdi cho‘pon oyog‘in Ko‘rib qolsa urmasin deb sang olib

2. « نمک بر جراحت ریشان زیاده کردن » [namak bar jarāhat-e rišān ziyāde kardan], яъни « نمک » « structural shakli bo‘lib, so‘zma-so‘z “yaralangan jarohatga tuz ziyoda qilmoq”, ya’ni “yarasiga tuz sepmoq”, “yara(si)ni yangilamoq”, “kuydirmoq”, “azoblamoq” ma’nolarini anglatib, uslubiy jihatdan frazemalar komponenti bo‘yoqdorligini oshirish uchun frazema « زیاده » so‘zi bilan keltirilgan va struktur tuzilishi ham o‘zgartirilgan :

نگار من چو در آید بخنده نمکین نمک زیاده کند بر جراحت ریشان

(« شرح گلستان » ، باب ۵ ، ص. ۵۱۷ .)

Chu kulgo‘yi namgin birla kelsa dildorim,

Dilim jarohatlariga namak ziyoda etar.

3. « دندان سگ و دهان مردم بستن » [dandān-e sag va dahan-e mardom bastan], ya’ni « دندان » [dandān-e kasi rā bastan] so‘zma-so‘z “itning tishin va xalqning og‘zin bog‘lamoq”, ya’ni “birovni gapirtirmay, og‘zini ochirmay qo‘ymoq”, “birovning og‘ziga urmoq”, ma’nolarini bildirib, uning leksik varianti « ترساندن » [tarsāndan] “qo‘rqitmoq” dir. Yozuvchi asarning stilistik ma’nosini kuchaytirish va bezagini oshirish uchun « دندان » ga nisbatan « سگ » va « دهان مردم » so‘z va birikmalaridan foydalangan va frazemalarning strukturasi o‘zgartirish kiritgan:

آنان که به گنج عافیت بنشستند دندان سگ و دهان مردم بستند

(« شرح گلستان » ، باب ۱ ، ص. ۱۹۳ .)

Xotirjam burchakdan joy olganlar,

Itning tishin, odam og‘zin bog‘laganlar.

Ayni holda, “Persidsko-russkiy slovar”da bu frazemaning “pora bermoq”, “pora berib sotib olmoq” ma’nolari berilgan.

4. « ز دست و زبان حرف گیران رستن » [ze dast-e va zabān-e harfgirān rastan], ya’ni « ز دست و زبان کسی رستن » [az dast va zabān-e kasi rastan] so‘zma-so‘z “kimdirning qo‘l va tilidan asranmoq”, ya’ni “g‘iybatchi tildan saqlanmoq”, “dushmandan asranmoq”, “badgo‘yning tili va dastidan asranmoq” ma’nolari keltirilgan. Frazemada « از » [az] predlogi « ز » [ze] shaklida qisqartirilishi, qofiyaga moslashtirilishi va « حرف گیران » so‘zi avtor tomonidan frazemaning tarkibiga kiritilishi frazemaning tuzilishida individual uslubiy yondashuvni keltiradi:

کاغذ بدریدند و قلم بشکستند وز دست و زبان حرف گیران رستند

(« شرح گلستان » ، باب ۱ ، ص. ۱۹۳ .)

Yirtib qog‘ozlarin qalam sindirganlar,

G‘iybatchi qo‘l, tilidan saqlanganlar.

5. « ز گوش پنبه بیرون آوردن » [az guš pambe birun āvardan], ya’ni hozirda qo‘llanish shakli [pambe az guš birun kešidan, āvardan (bar āvardan)] « بر آوردن (بر آوردن) » « پنبه از گوش

bo‘lib, so‘zma-so‘z “quloqdan paxtani tashqariga tortmoq, chiqarmoq”, ya’ni “aqlni yig‘moq”, “ko‘z(i)ni ochmoq”, “haqiqatni eshitmoq”, “g‘aflatdan uyg‘onmoq”, “hushyor bo‘lmoq”, “hushyorlanmoq” ma’nolarini bildiradi. Ayni holda, bu frazema so‘zlashuv tiliga xos bo‘lib, “Persidsko-russkiy” slovarda “diqqatli bo‘lmoq”, “quloq solib eshitishga rozi bo‘lmoq” ma’nalari ham berilgan.

Keltirilgan frazemada «از» [az] predlogining «ز» [ze] shaklini, «پنبه» [pambe] bilan «گوش» [guš] so‘z-komponentlarning o‘rin almashuvini va semantik siljishini kuzatish mumkin:

ز گوش پنبه برون آر و داد خلق بده و گر تو می ندهی داد، روز دادی هست

(«شرح گلستان»، باب ۱، ص. ۱۹۰.)

Qulog‘ingdan chiqar paxtang, adllik ber,

Gar bermasang Xudo u kun beradir.

6. «به محبت کسی گرفتار شدن» - so‘zma-so‘z “kimdirning muhabbatiga giriftor bo‘lmoq”, ya’ni “muhabbatning asiri bo‘lmoq”, “oshiqlikka uchramoq”, “sevib qolmoq” ma’nolarini bildirib, yozuvchi saj’ san’atini qo‘llashi bilan frazemaning normasidan chetga chiqishi «شدن» fe’li tushib qolishiga sabab bo‘lgan:

پارسایی را دیدم به محبت شخصی گرفتار، نه طاقت صبر و نه یارای گفتار.

(«شرح گلستان»، باب ۵، ص. ۵۰۸.)

Bir obid kishi oshiqlikka uchrab, betoqat bo‘lar, do‘stlarining malomatini eshitib, mashaqqat chekardi.

7. “Guliston”da keltirilgan avtorning individual, ijodiy, obrazli o‘xshatishlari asosida ba’zi so‘z birikmalarining o‘zgacha semantikada, ma’noda qo‘llanishi frazema shakllanishiga asos bo‘ladi:

«سنگ سراچه ی دل به الماس آب دیده سفتن» [sang-e sarāche-ye del be almās-e ābdide softan] so‘zma-so‘z “ko‘ngil uyi toshini ko‘z yosh olmosi bilan teshmoq”, ya’ni “yig‘lab ko‘ngilni bo‘shatmoq”;

(۱) یک روز تأمل ایام گذشته می کردم و بر عمر تلف کرده تأسف می خوردم و سنگ سراچه ی دل به الماس آب

دیده می سفتنم و بیت ها مناسب حال خود می گفتم...

(«شرح گلستان»، دیباچه، ص. ۱۰۵.)

Bir kecha o‘tgan kunlarni o‘ylab o‘tirib, befoyda kechgan umrga afsuslandim. Ko‘ngil uyi toshini ko‘z yoshim olmosi bilan teshib, o‘z holimga munosib ushbu baytlarni bitdim...

8. Frazemalar komponentining almashinuvi ko‘proq fe’liy frazemalarda yuz beradi. Agar frazema komponentini almashtirish, tushirib qoldirish, ko‘shish yoki o‘rmini o‘zgartirish uslubiy jihatdan asoslangan bo‘lsa, uning ta’sirchanligi yanada oshadi. Yoki agar mantiqiy asoslangan bo‘lsa, uning stilistik effekti yuqori bo‘ladi. Odatda frazema tarkibidagi komponent o‘zgarishi muayyan shart-sharoit, kontekst talabi bilan yuz beradi. Masalan,

1) « قدر بردن » [γadr bordan] so‘zma-so‘z “qadrni olib ketmoq”, ya’ni “qadr(i)ni yo‘qotmoq”, “qadr(i)ni bilmaslik”, “obro‘y(i)ni to‘kmoq”;

مجال سخن تا نبینی ز پیش به بیهوده گفتن میر قدر خویش

(« شرح گلستان », باب ۱, ص. ۱۹۲ .)

Gapirmoq vaqtini oldin bilmasang,

Behuda gapirib qadring qilma sang.

Frazemaning stilistik jihatdan effektini oshirish, qofiyani keltirish uchun « قدر bilan » « بردن » komponentining o‘rni almashgan va mantiqiy jihatdan asoslangan.

2) « دست تحیر به دندان گزیدن گرفتن » [dast-e tahayyār be dandān gazidan gereftan] so‘zma-so‘z “hayrat qo‘lini tishga chaqmoq, olmoq”, ya’ni “hayratdan yoqa ushamoq”, “judayam hayratlanmoq”, “nihoyatda taajjublanmoq”, “ajablanmoq”, “pushaymon bo‘lmoq” ma’nolarini bildirib, uning an’anaviy shakli (گرفتن، کندن) « دست به دندان گزیدن » « bo‘lib, uslubiy bo‘yoqdorlikni oshirish va ma’noni kuchaytirish uchun « گرفتن » - « گزیدن » fe’llaridan hamda « تحیر » “hayratlanish”, “ajablanish” so‘zidan foydalanilgan. Bunda frazemaning formasida normadan chetga chiqish holi, kuzatiladi.

مَلِك دست تحیر به دندان گزیدن گرفت و گفت... (« شرح گلستان », باب ۱, ص. ۱۸۳ .)

Podshoh hayratdan yoqa ushadi va dedi...

XULOSA

Frazemalarning struktur jihatidan o‘zgarishga uchrashi va ularning semantik, ya’ni ma’no doirasi jihatidan kengayish yoki torayish hollari frazemadan uslubiy foydalanish usullarida kuzatish mumkin. Bunday o‘zgarishlar ko‘proq avtor tomonidan frazemalarning uslubiy bo‘yog‘dorligini, ta’sirchanligini oshirishda yoki qofiyalarni keltirishda asarlarda ko‘llaniladi:

“Guliston”dagi shakli va

Struktural shakli va

semantik o‘zgarishi

semantikasi

۱) « نمک بر جراحت ریشان زیاده کردن »

« نمک بر جراحت (ریش، زخم) پاشیدن

« (افزودن) »

“dil jarohatlariga namak

“yarasiga tuz sepmoq”

ziyoda etmoq”

۲) « دندان سگ و دهان مردم بستن »

« دندان کسی را بستن »

“itning tishin, odam og‘zin

“birovni gapirtirmay, og‘zini

bog‘lamoq”

ochirmay qo‘ymoq”; “pora bermoq”

۳) « نمک خوردن »

« نان و نمک خوردن »

“birga taom emoq”

“og‘ayni tutilmoq”, “do‘st bo‘lmoq”

۴) « در طمّاع باز کردن »

« در باز کردن »

“tama’ eshigini ochmoq”,

“eshikni ochmoq”, “umid bermoq”,

“ehsonsiz eshikni ochmoq”	
۵) « طاقت بار فاقه نیآوردن »	« طاقت نیآوردن »
“kambag‘allik yukiga toqati bo‘lmasmik (yo‘q)”	“jonga tegmoq”, “toqat(i) toq bo‘lmoq”, “toqat(i) yo‘q”
۶) « رحمت در دل آمدن »	« در دل رحم آمدن »
“rahm qilmoq”, “achinmoq”	“rahm(i) kelmoq”, “achinmoq”
۷) « بخشیدن خون کسی »	« خون کسی بخشیدن »
“qonidan kechmoq”	“qonidan kechmoq”, “afv etmoq”, “kechirmoq”
۸) « امید از زندگانی قطع کردن »	« از زندگی امید قطع کردن »
“hayotdan umidni uzmoq”	“hayotdan umidni uzmoq”
۹) « ز دست و زبان حرف گیران رستن »	« از دست و زبان کسی رستن »
“badgo‘yning tili va dastidan asranmoq”, “dushmanidan asranmoq”	“(kimsaning) g‘iybatchi til(i)dan saqlanmoq”
۱۰) « ز گوش پنبه بیرون آوردن »	« پنبه از گوش بیرون کشیدن, آوردن (بر آوردن) »
“hushyor bo‘lmoq”, “ko‘z(i)ni ochmoq”	“haqiqatni eshitmoq”, “aqlni yig‘moq”, “g‘aflatdan uyg‘onmoq”
۱۱) « به محبت کسی گرفتار »	« به محبت کسی گرفتار شدن »
“oshiqlikka giriftor”, “muhabbatga giriftor”	“muhabbatning asiri bo‘lmoq”, “oshiqlikka uchramoq”

Yuqorida keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, yozuvchi asarning uslubiy tuzilishi, ma'no va mazmunini boyitish uchun ko'pgina frazemalarning turli shakllarini keltirgan.

Demak, asarlarda frazemalardan uslubiy foydalanish usullari ularni turli xil o'zgarishlarga uchragan holda qo'llash hisoblanadi. Bunda yozuvchi ma'lum darajada frazemaning uslubiy ma'no va komponentiga, struktur-semantik tuzilishiga o'zgartishlar kiritadi. Agar frazema komponentini almashtirish, tushirib qoldirish, qo'shish yoki o'rnini o'zgartirish uslubiy jihatdan asoslangan bo'lsa, uning ta'sirchanligi yanada oshadi. Yoki agar mantiqiy asoslangan bo'lsa, uning stilistik effekti yuqori bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raxmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (frazeologik birikmalarda polisemiya, sinonimiya, variyasiya, antonimiya, omonimiya va omonimlik). – T., 1966.
2. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Forsiydan Muhammadrizo Ogahiy tarjimai (nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov). – Toshkent, 1993.

3. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Forsiydan Mullo Murodxo'ja tarjimasi (nashrga tayyorlovchi Sayfiddin Sayfulloh). – Toshkent, 2005. – B.314.
4. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional- uslubiy xususiyatlari, dis. ...fil.fan.dok., –Toshkent, 1993, – B.296.
5. Кенесбаев С.К. К вопросу об экспрессивно-стилистических функциях фразеологизмов (на материале казахского языка). – Ашхабад: 1968. – С.207.
6. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М: Наука,1981. – 276 с.
 7. پرويز اتابكى بر گزيده وشرح آثار سعدى. - تهران ۱۳۷۴. - ۲۵۴ص.
 8. دکتر خزایلی محمد شرح گلستان. - تهران ۱۳۸۱. - ۹۰۳ ص.